



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

BADIIY TARJIMADA EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI: M. RIDNING “BOSHSIZ CHAVNDOZ” ASARI TARJIMALARI TAHLILI

Djalilova Nilufar Dilshodovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ingliz yozuvchisi M.Ridning “Boshsiz chavandoz” asari rus va o‘zbek tarjimalarida ekvivalentlikni ta’minlash masalalarini lingvistik hamda tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda badiiy tarjimada semantik aniqlikni saqlash, muallifning individual uslubini yetkazish, badiiy obrazlar va tasviriy vositalarni adekvat tarjima qilish, shuningdek, madaniy realiyalarni ifodalash muammolari o‘rganiladi. Asarning ingliz tilidagi original matni hamda rus va o‘zbek tilidagi tarjimalari qiyosiy tahlil asosida tahlil qilinib, turli darajadagi ekvivalentlik turlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, ekvivalentlik, tarjimashunoslik, realiyalar, frazeologik birliklar, transliteratsiya, stilistik vositalar.

ВОПРОСЫ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ: АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ ПРОИЗВЕДЕНИЯ М. РИДА "ВСАДНИК БЕЗ ГОЛОВЫ"

Джалилова Нилуфар Дилшодовна

Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми,
преподаватель

Аннотация

Данное исследование посвящено анализу вопросов обеспечения эквивалентности в переводах произведения английского писателя М. Рида «Всадник без головы» с точки зрения лингвистики и переводоведения. Рассматриваются вопросы сохранения смысловой точности в художественном переводе, передачи индивидуального стиля автора, адекватного перевода художественных образов и образных средств, а также выражения культурных реалий. На основе сравнительного анализа рассматриваются оригинальный текст произведения на английском языке и его переводы на русский и узбекский языки, определяются типы эквивалентности на разных уровнях.

Ключевые слова: художественный перевод, эквивалентность, переводоведение, реалии, фразеологические единицы, транслитерация, стилистические средства.

EQUIVALENCE IN LITERARY TRANSLATION: AN ANALYSIS OF THE TRANSLATIONS OF MAYNE REID’S ‘THE HEADLESS HORSEMAN’

Djalilova Nilufar Dilshodovna

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,
Lecturer

Abstract

The research analyzes issues of equivalence in translations of the English writer Thomas Mayne Reid’s novel “The Headless Horseman” from the perspective of linguistics and translation studies. It examines the issues of preserving semantic accuracy in literary translation, conveying the author’s individual style, adequately translating artistic images and figurative devices, and expressing cultural realities. Based on a comparative analysis, the original English text and its

translations into Russian and Uzbek are examined, and types of equivalence at different levels are determined.

Keywords: literary translation, equivalence, translation studies, realities, phraseological units, transliteration, stylistic devices.

Ma'lumki, jahon adabiyoti namunalarning turli xalqlar orasida keng tarqalishida tarjimaning ahamiyati beqiyosdir. Tarjima orqali bir xalqning adabiy merosi boshqa xalqlarning madaniy hayotiga kirib boradi, natijada adabiyotlarning o'zaro ta'siri va boyish jarayoni sodir bo'ladi. Ayniqsa, badiiy asarlarni tarjima qilish jarayoni murakkab ijodiy faoliyat bo'lib, u nafaqat matn mazmunini, balki muallifning individual uslubi, badiiy obrazlari va asarning umumiy estetik ruhini boshqa lingvistik vositalar yordamida qayta yaratishni talab qiladi. Shuning uchun ekvivalentlik masalasi tarjimashunoslikda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tarjimada ekvivalentlik tushunchasi asliyat va tarjima matnining ma'no, shakl va kommunikativ ta'sir jihatidan mos kelishini anglatadi. Tarjimon asliyat asarida ifodalangan g'oya va badiiy ifodani imkon qadar to'laqonli qilib tarjimada berishga harakat qiladi.

Tarjima madaniyatlararo muloqotning muhim vositasi bo'lib, turli til va madaniyat vakillari o'rtasida axborot, bilim va badiiy qadriyatlarni yetkazishda dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima asl matn mazmunini boshqa til vositalari yordamida talqin qilish va yetkazishning murakkab jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bunda matnning kommunikativ vazifasi, semantik mazmuni va badiiy ta'sirchanligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda tarjimaga lingvistik, stilistik va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda bir tildagi matn mazmunini boshqa til vositalari orqali yetkazish jarayoni sifatida yoritilgan. Taniqli tilshunos L. Barxudarov tarjimini bir tildagi matn materialini boshqa tildagi ekvivalent matn materialini bilan almashtirish jarayoni sifatida ta'riflaydi. [1; 6 – b.]

Badiiy asarlar tarjimasi o'ziga xos murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki badiiy matn obrazlilik, emotsional to'yinganlik va muallifning individual uslubi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun tarjima nazariyasida matnning asliyatga muvofiqlik darajasini ifodalovchi ekvivalentlik tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijiy tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlarida tarjima ekvivalentligi masalasi keng o'rganilgan. Jumladan, R. Yakobson tarjima nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, tarjimini so'z belgilarini boshqa til orqali talqin qilish jarayoni sifatida baholaydi. [1: 17 –b.] U til ichidagi tarjima, tillararo tarjima va intersemiotik tarjima turlarini ajratadi.

Tarjima nazariyasi taraqqiy etishida amerikalik olim E.Naydaning shakliy va dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Agar shakliy ekvivalentlik asl matnning tuzilishi va mazmunini eng aniq yetkazishni nazarda tutsa, dinamik ekvivalentlik o'quvchiga kommunikativ ta'sirni saqlab qolishga qaratilgan.

Rus tarjimashunosligida A. Fedorov, L. Barxudarov, V. Komissarov kabi olimlarning ilmiy ishlarida ekvivalentlik muammosi tadqiq etilgan. Jumladan, L. Barxudarov ekvivalentlikni asliyat va tarjima matni birliklari o'rtasidagi semantik muvofiqlik sifatida ta'riflaydi.[5;190 –b.] V.Komissarov ekvivalentlikni ko'p darajali hodisa sifatida baholaydi va u leksik, grammatik, stilistik va pragmatik darajalarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. [7; 24 – b.] A. Fedorovning fikriga ko'ra, ideal tarjima nafaqat asl matnning semantik mazmunini, balki uning uslubiy xususiyatlarini ham to'liq aks ettirishi lozim. [10; 14 – b.]

O'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov, Sh.Rahmatullayev, N.Komilov, G.G'afurova, Q.Musayev, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova, E.Ochilov, G.Fayzullayeva, I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov va boshqalar tarjimaning fan sifatida shakllanishi, tarjima nazariyasi va amaliyoti, asliyat va tarjima mutanosibli masalalari, tarjimadagi muammo, ularning yechimi, bartaraf etilishi, tarjima tanqidi, shuningdek, tarjimada frazeologizmlarning lingvistik va o'ziga xos

jihatlarini o'rganish orqali badiiy adabiyot rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar [9; 49-b.].

G'. Salomov tarjimani asliyat matnining mazmuni va badiiy shaklini tarjima tilining madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazishga qaratilgan ijodiy jarayon sifatida talqin qiladi.[9; 32 –b.]. Q. Musaev esa tarjimani lingvistik va madaniy omillar uyg'unligida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko'rib, kontekst va madaniy muhitning muhimligini ta'kidlaydi [8; 16 – b.].

Ma'lumki, tarjima nazariyasi fani mustaqil soha sifatida XX asr o'rtalarida shakllana boshlagan bo'lsa-da, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga egadir.

Tarjima nazariyasining vujudga kelishi va uning universal qoidalarining ishlanishi ijodiy tarjima amaliyotiga keskin va xayrli ta'sir qildi. XX asrning o'rtalaridagiga nisbatan olganda ham, tarjimalarning sifati va saviyasi sezilarli darajada oshdi. Tarjimada savodsizlik, taglama tarjimalardan foydalangan holda tarjima qilish, vositali tillar orqali tarjima qilish ancha kamaydi. Asliyat va tarjima tilining butun qirralari va nozikliklari, bir-birlariga qay darajada muvofiq ekanliklari, ziddiyatli, murakkab tomonlarini qiyosan mukammal bilish hozirgi zamonda tarjimaning eng birinchi shartlaridan ekanligi hamma yerda tan olindi. [2; 12 –b.]

Tadqiqot metodologiyasi.

Tarjima va tarjimada ekvivalentlik masalasini tadqiq qilish chog'ida qiyosiy-chog'ishtirma tahlil, badiiy matnning lingvostilistik tahlili hamda tarjima transformatsiyalari tahlili usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Boshsiz chavandoz" romani va uning rus va o'zbek tillariga tarjimalari tanlangan.

Natijalar va muhokama.

Ekvivalentlik tarjimashunoslikdagi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, tarjima matnining asliyatga muvofiqlik darajasini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda ekvivalentlik nisbiy tushuncha sifatida qaraladi, chunki turli tillardagi matnlar o'rtasida to'liq muvofiqlikka erishish deyarli mumkin emas.

Rus olimi V. Komissarovning ta'kidlashicha, ekvivalentlik quyidagi darajalarda [7; 76 – b.] amalga oshiriladi:

- leksik ekvivalentlik
- grammatik ekvivalentlik
- uslubiy ekvivalentlik
- pragmatik ekvivalentlik

Ushbu darajalar tarjima jarayonida matnning mazmuni, uslubi va kommunikativ ta'sirini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, T.M.Ridning "Boshsiz chavandoz" romanidagi quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Asliyatda: The moon shone brightly over the silent prairie.

Rus tilida: Луна ярко освещала тихую прерию.

O'zbek tilida: Oy jimjit dasht ustida yorqin nur sochdi.

Mazkur misolda tarjimonlar asl matnning badiiy tasvirini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Bu yerda semantik mazmun bilan birga badiiy obraz ham to'liq yetkazilgan bo'lib, stilistik va semantik ekvivalentlik ta'minlangan.

Asardan olingan yana bir fragmentda frazeologik ekvivalent usulini ko'ramiz:

Asliyatda: She had been restrained from advancing by a fear - the fear of finding out a bitter truth.

Rus tilida; От продвижения вперед ее удерживал страх- страх узнать горькую правду.


O'zbek tilida: U bundan nari borishdan, o'zi uchun achchiq haqiqatni bilishdan qo'rqardi.

“Bitter truth” iborasi har ikki tilda ham to‘liq ekvivalent usulida tarjima qilinib, ibora mazmuni adekvat yetkazib berilgan.

Ma’lumki, tarjimonning asosiy vazifalaridan biri asliyat mazmunini imkon qadar to‘liq yetkazish, shu bilan birga, asliyat va tarjima mazmunining haqiqiy umumiyligini ta’minlashdir. Ikki turli tildagi matnlar mazmunining ushbu matnlar yaratilgan tillardagi farqlar bilan yo‘l qo‘yiladigan maksimal umumiyligi tushuniladigan potensial erishish mumkin bo‘lgan ekvivalentlik va tarjima ekvivalentligi - asliyat va tarjima matnlarining tarjima jarayonida tarjimon tomonidan erishiladigan haqiqiy semantik yaqinligini farqlashimiz zarur. Tarjima ekvivalentligining chegarasi tarjimada asliyat mazmunini saqlab qolishning mumkin bo‘lgan maksimal (lingvistik) darajasi hisoblanadi, ammo har bir alohida tarjimada asliyatga mazmuniy yaqinlik turli darajada va turli usullar bilan maksimal darajaga yaqinlashadi.

Asliyat va tarjima matni tizimlaridagi farqlar va bu tillarning har birida matn yaratish xususiyatlari tarjimada asliyat mazmunini to‘liq saqlab qolish imkoniyatini turli darajada cheklashi mumkin. Shu sababli tarjima ekvivalentligi asl nusxada mavjud bo‘lgan turli xil ma’no elementlarini saqlab qolishga (va shunga mos ravishda yo‘qotishga) asoslanishi mumkin. Tarjimada uning ekvivalentligini ta’minlash uchun mazmunning qaysi qismi berilishiga qarab, ekvivalentlikning turli darajalari farqlanadi. Har qanday ekvivalentlik darajasida tarjima tillararo muloqotni ta’minlashi mumkin.

Badiiy matnlarni tarjima qilishga ta’sir qiluvchi omillar



Yuqoridagi jumlada ikki realiya berilgan bo‘lib, ular “mustang” va “lasso” so‘zlaridir.

“Mustang” bu yovvoyi ot turi, “lasso” esa ot tutish arqonidir.[6; 126 –b.]. Tarjimada transliteratsiya usulidan foydalanilgan. Bunda “mustang” so‘zi “oddiy ot” deb tarjima qilinsa, Texas madaniy koloritining bir qismi yo‘qolgan bo‘lardi.

Quyidagi jadvalda asarda uchraydigan ba’zi realiyalar hamda ularning tarjimasi ekvivalentligi keltirilgan:

1-jadval

№	Asliyat (ingliz tili)da	Rus tilida	O‘zbek tilida	Tarjima usuli	Izoh
1	praire	пре́рия	dasht	funksional ekvivalent	Texas landshaftini

					iflodalaydi
2	mexican ranchero	мексиканский ранчери	meksikancha kiyim	transliteratsiya	chorvador kiyimi
3	plantation	плантация	plantation	transliteratsiya	tarixiy-iqtisodiy realiya
4	frontier life	пограничная жизнь	chegara hududi hayoti	tavsifiy tarjima	tarixiy-madaniy realiya
5	mustang	мустанг	mustang	transliteratsiya	yovvoyi ot turi
6	Serapes	серапе	serape	transliteratsiya	meksikancha plash
7	hacienda	асиенда	gasienda	transliteratsiya	Mulk, qo'rg'on, Meksika, Texas va Janubiy Amerika xo'jayin uyi
8	By Heavens!	Черт возьми!	Xudo haqqi!	frazeologik ekvivalent	kuchli emotsional qasam

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, asar tarjimasi jarayonida turli tarjima strategiyalari kombinatsiyasi yordamida tarjimada ekvivalentlikka erishilgan. Bunda, realiyalarni tarjima qilishda transliteratsiya, funksional ekvivalent berish, tavsifiy tarjima; frazeologik birliklar tarjimasida frazeologik ekvivalent, deskriptiv tarjima usulidan ham foydalanilgan.

Xulosa.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekvivalentlik badiiy tarjima sifatining eng muhim mezonlaridan biridir. "Boshsiz chavandoz" romani tarjimalari tahlili shuni ko'rsatdiki, ekvivalentlikka erishish tarjima transformatsiyalaridan samarali foydalanish hamda turli tillarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, badiiy tarjima murakkab ijodiy jarayon bo'lib, u tarjimondan nafaqat manba matn mazmunini chuqur tushunishni, balki maqsad tilining stilistik va madaniy xususiyatlarini ham mukammal bilishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jakobson, R. On linguistic aspects of translation. Harvard University Press.1959.
2. Gafurov I., Mo 'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Toshkent: "Tafakkur bo 'stoni". 2012.
3. Nida, E. Toward a science of translation. Leiden: Brill.1964.
4. Reid, T. M. The Headless Horseman. London. Third edition. 2021.
5. Бархударов Л. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). М.: Международные отношения. 1975.
6. Джалилова Н. Особенности перевода английских фразеологизмов (на примере перевода фразеологических единиц в произведении "Всадник без головы" Т.М. Рида). Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. 2026-1/5. Хива, 2026.
7. Комиссаров В. Современное переводоведение. М.: ЭТС. 2001.
8. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 2005.
9. Саломов Г. Таржима ташвишлари. Тошкент, 1978.
10. Федоров А. Основы общей теории перевода. М.: Филология три. 2002.